

Ekologiya, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va iqlimning o'zgarishi sohasidagi "O'zkimyosanoat" AJ siyosati

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/activities/ecology/ekologiya-tabiiy-resurslardan-oqilona-foydalanish-va-iqlimning-o-zgarishi-sohasidagi-o-zkimyosanoat-aj-siyosati>

"O'zkimyosanoat" AJ davlat qonun hujjatlari va integrallashgan menejment tizimi bo'yicha ISO 14001 xalqaro standartlari, shuningdek, ESG barqaror rivojlanish strategiyasi tamoyillariga tayanadi va ularga amal qiladi.

Kompaniya quyidagi yo'nalishlarga qaratilgan ekologik siyosat yuritadi:

- atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimal darajaga tushirish, jumladan:
- atmosferaga ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishini kamaytirish;
- oqova sularni tashlamalarini kamaytirish;
- tarmoq korxonalari faoliyati natijasida hosil bo'lgan chiqindilar hajmini kamaytirish;
- chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish hajmini oshirish, kam chiqindili va "yashil" texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish;
- iqlim o'zgarishiga olib keluvchi issiqxona gazlari chiqarilishini kamaytirish:
- "yashil" texnologiyalar va ishlab chiqarish jarayonlarini joriy etish;
- alternativ energiya manbalari va boshqa resurslardan foydalanish;
- issiqxona gazlarining salbiy ta'sirini kamaytirishga qaratilgan hisob-kitob metodologiyalari va chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- energiya sarfi kam va atrof-muhitga ta'siri minimal bo'lgan, xalqaro talablarga javob beradigan ishlab chiqarish liniyalarini modernizatsiya qilish;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish;
- ekologik faoliyatni yaxshilash maqsadida strategiyani doimiy ravishda takomillashtirish;
- xodimlarning o'z sohalaridagi malakasini doimiy ravishda oshirish;
- barcha xo'jalik faoliyat yo'nalishlari bo'yicha hokimiyatlar, nazorat organlari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;
- innovatsion yondashuvlar, mahsulot ishlab chiqarishdagi yangiliklar va samarali ish usullarini ishlab chiqishda ishtirok etgan xodimlarni rag'batlantirish orqali ularning malakasini oshirishni ta'minlash;
- energiya resurslaridan samarali foydalanish, shuningdek, alternativ/tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish imkoniyatlarini o'rganishni ta'minlash.